

ESTRADA MUSIQASI. BOTIR ZOKIROV VA “YALLA” GURUHI.

Xujaqulov Damin Nosirovich

*Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi
oliy toifali musiqa fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu dars ishlanmada 6-sinf o'quvchilari uchun musiqa fanidan «Estrada musiqasi. Botir Zokirov va “Yalla” guruhi» mavzusidagi 1 soatlik dars ishlanmasi interfaol usul hamda o'yinlar yordamida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, estrada, tinglash, kuylash, mashhur shxslar, bilimdon, nota.

Dars maqsadlari:

ta'limi: o'quvchilarga estrada musiqasi ildizlarining paydo bo'lish va O'zbekistonda shakllanishi haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy: Estrada musiqasi orqali o'quvchilarning kayfiyatlarini va intilishlariga mos keladigan zamonaviy estarda san'ati namunalaridan bahramand qilish orqali estetik ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarga dars jarayonida estrada musiqasi haqida tushuncha berib, tinglash, kuylash orqali estrada san'atiga qiziqishlarini shakllantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi dars.

Darsda foydalanilgan metodlar: guruhlarda ishlash, “Faol pochta”, “Musiqa tarixiga nazar”, „Birga kuylaymiz”, “Mashhur shaxslar”, “Musiqa bilimdoni”

Dars jarayonida amalga oshirish bosqichlari:

1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Uyga vazifani so'rash	5 daqiqa
3	Yangi mavzuni tushuntirish	15 daqiqa
4	Musiqa savodi	5 daqiqa
5	Mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
6	Ovoz sozlash va qo'shiq kuylash	8 daqiqa

7	Uyga vazifani berish	2 daqiqa
---	----------------------	----------

DARSNING BORISHI:

I.Tashkiliy qism: Davomatni aniqlash, o‘quvchilarning darsga tayyorligini tekshirish, ovoz sozlash mashqlari (DO-MI-SOL-DO-MI-DO) o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lish, ruhiy iqlim tashkil etish.

O‘qituvchi: Musiqani inson hayotidagi o‘rnini nimalardan iborat.

O‘quvchilar : Yaxshi musiqa insonga estetik zavq beradi. Insonlarni ona-vatanga muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Xalqlar o’rtasidagi do’stlikni muhtahkamlaydi. Guruh o‘quvchilari o‘z guruh nomlarini she’riy tarzda bayon qiladilar.

I guruh. Rubob.

Quyosh kabi nur sochar,

Ko‘ngillarga yo’l ochar.

Sayqal berib kuylasak,

Chamanzorga yo’l ochar.

II guruh Dutor.

Har yurakka jo bo’lgan,

San’atimiz sadosi.

Ko‘ngillarga jilo bergen,

Shudir uning Navosi



Darsda har bir to‘g‘ri javob, yoki faol ishtirok uchun nota kartochkasi beriladi. Dars so‘ngida guruhlarning to‘plagan notalari sanalib, g‘olib guruh aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

II. O‘tilgan mavzu va uyga vazifani so‘rash:

Bunda “Faol pochta” metodidan foydalanamiz. Bu metodning yana bir afzalligi shundaki, barcha o‘quvchilar faol ishtirok etadilar. Savollar hammaga tarqatiladi va har bir o‘quvchidan bittadan ma’lumot so‘ralib, uyga vazifa va o‘tilgan mavzu mustahkamlanib olinadi. Bunda pochta konvertlariga quyidagi savollar yoziladi.

1. Folklor musiqasi haqida nimalami bilasiz?



2. O‘zbek dostonchilik san’ati va ijrochilik uslublari haqida so‘zlab bering.

3.“O‘zbekiston - jannat” qo‘sriginmg mualliflari kimlar?

III.Yangi mavzu bayoni: Darslik bilan ishlash. Bunda „Musiqa tarixiga nazar“ usulidan foydalanamiz.

Estrada so‘zi lotin tilida “tepalik” (sodda qilib aytganda, taxtasupa) ma’nosini anglatadi. XX asrda estrada so‘zi musiqaga kirib keldi va tomosha san’atining kichik shakli sifatida qo‘llanila boshlandi. Estrada - yengil maishiy xarakterli ommabop musiqa bo‘lib, uning tashkil topish tarixi g‘arb xalqlarining teatr-tomosha shakllaridan boshlanadi. Bu G‘arbda ommalashgan kafeshaktan, muzik- xoll madaniyatlarining o‘zaro ta’sirida rivojlandi. Asta-sekin jaz, Yevropa va Sharq garmoniya va ritmikasi, rok, pop, rep kabi musiqalar va yo‘nalishlar estra- dani egalladi. O‘zbekistonda ham estrada musiqasi XX asming 50-yillarda shakllana boshladi. Unga Botir Zokirov asos soldi. Shundan so‘ng estrada musiqasi tez ommalashdi va rivojlandi. “Yalla”, “Paxtaoy”, “Navo”, “Sado” kabi estrada guruhlari shakllandı. Ayniqsa, 80-90-yillardan boshlab jahon andoza- rep guruhlari tuzildi. O‘zbek estradasi istiqlol yillarida sifat jihatidan ancha katta imkoniyatlar yaratilganligi ulkan samaralarga asos bo‘ldi. Nasiba Abdullayeva, Kumush Razzoqova, Ravshan Kornilov, Ozod



bu



ommalashdi va rivojlandi. “Yalla”, “Paxtaoy”, “Navo”, “Sado” kabi estrada guruhlari shakllandı. Ayniqsa, 80-90-yillardan boshlab jahon andoza- rep guruhlari tuzildi. O‘zbek estradasi istiqlol yillarida sifat jihatidan ancha katta imkoniyatlar yaratilganligi ulkan samaralarga asos bo‘ldi. Nasiba Abdullayeva, Kumush Razzoqova, Ravshan Kornilov, Ozod

Nazarbekov, Gulsanam Mamazoitova, Sevara Nazarxon kabi namoyandalar shakllandi. Ulaming ijodlari “Milliy estrada” degan musiqiy tushunchaga mosligi bilan yoshlar orasida keng ommalashgan. O‘zbek milliy estradasida xalqimizga xos musiqiy, adabiy, axloqiy, milliy an’analar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

BOTIR ZOKIROV - O‘zbek estrada musiqasining asoschisi, o‘zbek milliy estrada san’atining yirik namoyandasasi, ajoyib shoir, rassom, dramaturg, rejissor va mohir xonanda Botir Zokirov Toshkentda ustoz san’atkor Karim Zokirov oilasida tavallud topgan. U o‘z kasbining ustasi edi, muntazam ravishda o‘zbek milliy estrada san’ati rivoji yo‘lida izlanishlar olib bordi. Ijodiy izlanishlar jarayonida ms, xorijiy, sharq estrada qo‘schiqlarini o‘zbek milliy qo‘schiqchiligidagi uyg‘un- lashtirib, yangi qiyofa topishga mu- yassar bo‘ldi. B.Zokirov Toshkent Davlat konservatoriyasida va Toshkent Teatr va rassomchilik institutida tahsil olgan. Uning amalga oshirgan ijodiy ishlari keyinchalik o‘zbek estradasining mmntoz andazasi bo‘lib qoldi. Masalan: “Arab tangosi”, “Habiba”, “Qochoq qiz” va boshqalar. B.Zokirov bu qo‘schiqlari bilan O‘zbekistonni butun dunyoga tanitdi. Ayniqsa, “Ra’no”, “Maftun bo‘ldim” kabi qo‘schiqlari bilan o‘zbek estradasida o(chmas iz qoldirdi. Zokirov yosh iste’dodlami izlashda, ularga yo‘l ko‘rsa- tishda mehnatini ayamadl Uning bu mehnatlari samarasini o‘la- roq, juda ko‘p yosh iste’dodlar kashf etildi.



“Yalla” vokal-cholq‘u guruhi

“YALLA” GURUHI - o‘zbek estrada musiqasining faxri bo‘lgan “Yalla” guruhi 1971-yili tashkil topgan. Uning qatnashchilari Toshkent Teatr va rassomchilik instituti va konservatoriya talabalari B.Zokirovning shogirdlaridan edi.“Yalla” guruhi o‘z paytida VIA (vokal-instrumental ansambli) shak- lida faoliyat ko‘rsatib, O‘zbekistonda ilk estrada-roq guruhlari qatoridan o‘rin oldi. Unga bir necha yillar davomida Farrux Zokirov rahbarlik qilib kelmoqda. U “Yalla”ni professional guruhlar darajasiga ko‘tardi.

“Yalla” ijrosidagi “Uchquduq”, “Choyxona”, “Mahbubam chiroyli”, “Yallama-yorim”, “G‘ayra- g‘ayra”, “Qilpillama” kabi qo‘shiqlar o‘zbek estrada musiqasi xazinasidan munosib joy oldi. 1982-yili “Yalla” yoshlaming IX jahon festivalida 1-o‘rinni egallab, butun dunyoga dong taratdi. “Arab tangosi” va “Ra’no” S. Akbariy she’ri, I. Akbarov musiqasi (B. Zokirov ijrosida), “Yalla” vokal-cholq‘u guruhi ijrosida “Shahrisabz”, “Toshkentim”, “Choyxona” qo‘shiqlarini tinglang.



IV. Mavzuni mustahkamlash: Darsning mustahkamlash qismida

« O‘zbekiston-abadiy bahorim » qo‘shibi ustida ish olib boriladi. Bunda « Birga kuylaymiz » usulidan foydalanamiz.

O‘ZBEKISTON – ABADIY BAHORIM

Rauf Tolib she’ri

Nadim Norxojayev musiqasi

O‘rtacha tez

Bog‘lar qanday ser- ji- lo, Bir qa-rang.
 Soy kuy-la-ri bosh- qa-cha, ser- ja- rang.
 G‘un-cha men- ga jil- ma- yib kul-gan-day.
 O- na yur- tim Se-h(i)r-ga to‘l-gan-day.

Ko‘n-gil- lar- da ming his-tuy-g‘u, Ming his-tuy-g‘u ke-cha-di.
 Or-zu qush-day tal-pi-na-di, tal-pi-na-di, u-cha-di. O‘z- be-kis-
 ton, O‘z- be- kis- ton –
 a- ba- diy ba- ho- rim.

“Musiqa bilimdoni” didaktik o‘yini ham darsni mustahkamlashda samara beradi. bunda quyidagi savollardan foydalanamiz.

- 1.O‘zbekistonda estrada musiqasi qachon shakllana boshladi?
- 2.Siz qanday estrada guruhlarini bilasiz?
- 3.O‘zbek estrada san’atining yirik namoyandası Botir Zokirov haqida gapirib bering.
- 4.“Yalla” guruhi haqida nima bilasiz?



“Mashhur shaxslar” usuli.

Ushbu usul oqrali quyidagi rasmlardagi mashhur shaxslar kimligini aytadilar.



Bugungi kunda estrada musiqasining yorqin yulduzlarini kimlar deb o‘ylaysiz?
O‘zbekiston xalq artistlari: Farrux Zokirov, Nasiba Abdullayeva, Ozodbek Nazarbekov, Ziyoda Qobilova, Alisher Fayz, Ravshan Komilov, Dilnoza Ismiyaminova va boshqalar o‘zbek estrada san’atini yoshlarga targ‘ib qilmoqda.



V. Darsni yakunlash va o‘quvchilarini baholash.

Guruhlar dars avvalida e’lon qilingan shartga muvofiq nota rasmi tushirilgan kartochkalarni ishtiroklariga ko‘ra g‘oliblik aniqlanadi. Guruh a’zolari uchun ballari qo‘sib beriladi. O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi.

VI.Uyga vazifa:

“O‘zbekiston - abadiy bahorim” qo‘sигини yod oling va kuylang.